



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 3

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy fanlar** bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoir Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

| MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS | | |
|---|--|-----|
| ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ | | |
| Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A. | G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish | 3 |
| Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K. | Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии $(\sqrt{s_m})^{1/2}=62-5020$ GeV | 8 |
| Masharipov S. I. | Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections | 12 |
| Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallov F.K., Narzullaeva Z.M. | Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS ₂ | 16 |
| Xayitova X.G'. | Ikkinchi tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari | 23 |
| Aliyeva T.A. | Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region | 29 |
| TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ | | |
| Asadov T.H. | O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiati xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida) | 37 |
| Azimov I.M. | Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati | 42 |
| Bozorova R.Sh. | Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi | 48 |
| Davlatova M.H. | Ikkiilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezulativ tuzilmalar turlari xususida | 55 |
| Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R. | Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar | 60 |
| Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V. | Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati | 64 |
| Xidirova G.X. | Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари | 69 |
| Hamroyeva N.N. | Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar | 76 |
| Ismoilova D.R. | Language crimes in English language | 81 |
| Narzullayeva F.O. | Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi | 85 |
| Rabieva M.G'. | Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida | 90 |
| Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh. | Kooperatsiya tamoyilining pragmatolingvistikadagi o'rni | 94 |
| Uzakova L.A. | O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimlarini o'rganish | 99 |
| Xolova Sh.D. | "Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari | 103 |
| Xudoyev S.S. | O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi | 108 |
| Xusainova Z.Y. | Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi | 113 |
| Yusupova D.Y. | Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva | 120 |

NEMIS TILIDA GIDRONIMLARING KELIB CHIQISH TARIXI

Bozorova Rufina Sharopovna,
Buxoro davlat universiteti
Nemis filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi
rshbozorova78@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada Germaniyada mavjud suv havzalariga nom berish tamoyillari, suv nomlarining kelib chiqish tarixi, suv obyektlariga yaqin joyda joylashgan foydali qazilmalar yoki shu yerlarda istiqomat qiluvchi odamlarning uzoq muddatli faoliyati bilan bog'liq omillar haqida fikr yuritilgan. Bunday omillar ushbu suv obektlarining nomlanishiga bevosita ta'sir qilishi mumkinligi bo'yicha keng ma'lumotlar keltirilgan. Suv havzalari qadimgi nomlarining tub ildizi hamda ularning ma'nolari misollar yordamida qiyosiy jadvallarda o'z aksini topgan. Maqola mutaxassislar – tilshunolar, tarixchilar, o'lkashunolar, etnograflar, geograflar, geologlar, jumladan, gidronimlar sir-asrorlari bilan qiziquvchilarning keng ommasi uchun ham foydali. Mazkur ishda qadimgi Yevropa suv so'zlari, suning xususiyatlariga ko'ra nomlar, keng tarqalgan Keltlar daryosi nomlarining kelib chiqish ildizlari o'zbekcha shakli bilan birgalikda jadvallarda o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: gidronim, gidronimiya, potamonim, mikrotoponim, makrotoponim, etimon, etimologiya, xronologiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, dominant birikma.

Аннотация: В данной статье обсуждаются принципы именования существующих водоёмов Германии, история происхождения названий вод, полезные ископаемые, расположенные вблизи водоёмов и факторы, связанные с многолетней деятельностью людей, проживающих в этих районах. Имеется обширная информация о том, что такие факторы могут напрямую влиять на наименование этих водоёмов. Корни древних названий водоёмов и их значения отражены в сравнительных таблицах с помощью примеров. Статья полезна специалистам - лингвистам, историкам, краеведам, этнографам, географам, геологам, в том числе широкой общественности, интересующейся загадками гидронимов. В данной работе в таблицах отражены древнеевропейские водные слова, названия по свойствам воды, корни происхождения кельтских речных названий вместе с узбекской формой.

Ключевые слова: гидроним, гидронимия, потамоним, микротопоним, макротопоним, этимон, этимология, хронология, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, доминирующее соединение.

Annotation: This article discusses the principles of naming existing reservoirs in Germany, the history of the origin of the names of waters, minerals located near reservoirs or factors related to the long-term activity of people living in these areas. There is a wealth of information on how such factors can directly influence the naming of these bodies of water. The roots of the ancient names of reservoirs and their meanings are reflected in comparative tables with the help of examples. The article is useful for specialists - linguists, historians, local historians, ethnographers, geographers, geologists, including the general public interested in the riddles of hydronyms. In this work, ancient European water words, names according to the properties of water, the roots of the origin of common Celtic river names, together with the Uzbek form, are reflected in the tables.

Key words: hydronym, hydronymy, potamonym, microtoponym, macrotoponym, etymon, etymology, chronology, internal motivation, external motivation, dominant compound.

Kirish. Daryo va ko'llarning nomlari fanda gidronimlar deyiladi. Ularni tadqiq qilishning shunisi qiziqki, insoniyat o'tmishi, sivilizatsiyasi va madaniy taraqqiyotining tarixi haqida bebaho ma'lumotlar mavjudligi, gidronimlarni o'rganish xalqlarning ajdodlar o'yi, etnogenezi va migratsiyalari haqidagi farazlarni tekshirishga yordam beradi. Gidronimlarni o'rganuvchi fan – gidronimiya yordamida qadimgi aloqa usullarini kuzatish, ma'lum bir hududdagi aholining etnik tarkibini aniqlash, hayvonlar va o'simliklarning avvalgi yashash joylarini qayta qurish, foydali qazilmalar konlarini topish va hokazolar mumkin. Germaniyadagi mavjud suv havzalariga nom berish tamoyillarini tushunishga imkon beruvchi tadqiqotimiz suv obektlariga yaqin joyda joylashgan foydali qazilmalar bilan yoki bu yerlarda yashovchi

LINGUISTICS

odamlarning uzoq muddatli faoliyati bilan bog'liqligi, shuningdek, boshqa shunga o'xshash omillar ushbu suv obektlarining nomlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Asosiy qism. Efez, Urf, Eyfa, Grenf va Ryunda (Shvalma irmoqlari) kabi noodatiy yangraydigan daryo nomlaridan Zilberzee va moviy Adria singari mashhur ko'llar nomlariga o'xshash atamalar ko'plab uchraydi. Suv nomlari yoki Gidronim deganda (grekcha hydor-"suv"degani) daryo, dengiz, ko'l, kanal, hovuz kabilarning nomlari kiradi. Daryo nomlari va Potamonimlar (grekcha potamos "daryo") oqadigan (daryo, kanal, buloq, anhor v.b.) va oqmaydigan (dengiz, hovuz, botqoq, balchiq) ga bo'linadi. Gidronimlar esa, makrotoponimlar (okean, daryo, dengiz) va mikropotonimlar (anhor, ko'l, hovuz) ga bo'linadi. Ular odatda ma'lum bir joyning qadimiy nomini ifodalaydi. Yevropadagi nomlarning ajoyib o'xshashligi (masalan, Isar, Isere, Iser) qadimgi Yevropa gidronimiyasi (barcha suv havzalari nomlarining vaqtinchalik yoki fazoviy yig'indisi), ya'ni bitta til oldidan qabul qilingan suv havzasi nomlari nazariyasiga turtki berdi. Garchi bu nazariya bahs-munozaralardan xoli bo'lmasa-da, u hali ham qat'iy rad etilmagan. Biroq suv havzalari nomlari ko'pincha ming yillar davomida meros bo'lib kelgan eng qadimiy va eng doimiy suv havzalari nomlari deb hisoblanishi mumkin. Suv havzalari nomlarini o'rganish uzoq an'anaga ega va adabiyotlar ro'yxati mos ravishda kengdir. "Hydronimia Germaniae" turkumi nemis daryo tizimlarining nomlari bilan bog'liq. Suv tizimining gidronimlari, ularning joylashuvi va birinchi tarixiy hujjatlari qayd etilgan, ammo etimologiyasi haqida ma'lumot yo'q. 1985-yildan beri Yevropada nashr etilayotgan "Hydronimia Europea" turkumi suv nomlari tadqiqot sohasini kengaytirib, Yevropani ham qamrab oladi. Bundan tashqari, ma'lum bir mintaqaga masalan, Brandenburg federal o'lkasiga oid bo'lgan suv nomlari haqidagi kitoblar ham mavjud [1]. Hozirgacha suv nomlari bo'yicha ishonchli etimologik leksika yetishmayotgan edi, ammo hozirda u "Nemis suv nomlari kitobi (DGNB)" shaklida chop etilmoqda [2]. Qadimgi Yevropa daryolari nomlarining etimologiyasini Hind-Yevropa tadqiqotlari asosida har tomonlama qayta ko'rib chiqish zarur. Daryo nomlari eng qadimgi qatlaminin tizimli, umumlashtirilgan ko'rinishi haligacha mavjud emas [3]. Suv nomlarining tez-tez munozarali etimologiyalari bilan birga, tadqiqot adabiyotlarida batafsil ko'rib chiqishga arziydigan ba'zi bir qiziqarli jihatlari, ya'ni daryo nomlarining rodi va ularning ko'p nomlilik xususiyatlari hozirgacha deyarli ko'rib chiqilmagan.

Daryo nomlari mintaqaning eng qadimgi toponimlari bo'lib, bu ularning yordami bilan tarixiy lingvistik munosabatlar va joylashish harakatlarini keng qamrovi qayta tiklash imkonini beradi. Daryo nomlarining xronologiyasi uchun quyidagi tartib amal qiladi:

a) qadimgi Yevropa: Nemis tilshunosi Hans Krahe faraziy Hind-Yevropa unitar tili va alohida tillarni ajratish o'rtasida suv havzalarining qadimgi Yevropacha nomlarining kelib chiqish tarixini belgilaydi. Qadimgi Yevropa bu yerda til belgisi emas, balki ismning lingvistik kelib chiqishi Hind-Yevropa deb tasniflangan ism sinfiga tegishli ekanligini anglatadi. Qadimgi Yevropa daryolari nomlari bir xil qatlam hosil qilmaydi, chunki ularning kelib chiqishi juda boshqacha bo'lishi mumkin. Ularni mutlaq aniqlashning imkoni yo'q, faqat xronologik jihatdan tadqiq etish mumkin. Suv nomlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borgan nemis olimi Schmid shuning uchun na fazoviy, na vaqtinchalik bir xil bo'lmagan qadimgi Yevropa nomlari tarmog'i haqida fikr yuritib, daryo nomini qadimgi Yevropaga oid nomlar deb tasniflash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerakligini aytadi:

- Daryo nomi faqat bir tilda tushuntirilmasligi kerak.
- U hind-yevropa etimoni va hind-yevropa irsiy so'zining morfologik tuzilishiga ega bo'lishi kerak.
- Semantik jihatdan, oqmoq, oqim, daryo so'zlari maydonidan ma'noga ega bo'lgan kirish so'zlari mos ravishda suv xususiyatlariga yoki ularning hosilalariga ega bo'lishi kerak.
- Fazoviy jihatdan Qadimgi Yevropa nomlari Yevropa bilan chegaralangan (Skandinaviyadan janubiy Italiyagacha, Britaniya orollaridan Boltiqbo'yi davlatlarigacha, Don chegaralari va shimoliy Gretsiyagacha).
- Bu nom uchun Yevropa hududidagi ildiz va tizim jihatidan bog'liq bo'lgan kamida bitta daryo nomi mavjud bo'lishi kerak.

Qadimgi Yevropa daryosi nomini faqat tarixiy dalillar yordamida etimologik aniqlash mumkin. Misol uchun, Elz nomi (Odenwald janubidagi), tarixan villa Alantia, Elentz sifatida manbalarda ko'rsatilgan. Shunday qilib, Alantia nomini qabul qilish mumkin. Bu nemis yoki kelt emas, balki Hind-Yevropa ildizida talqin qilinishi mumkin. Bu bilan Aland (Elbe viloyati), Alanta (Litva) nomlarini solishtirish mumkin. Suv nomlarining etimologiyasini aniqlash faqat Hind-Yevropa tadqiqotlari orqali amalga oshiriladi [4]. Hans Krahe qadimgi Yevropa daryolari nomlarining kelib chiqishi birinchi tovush almashinuvidan oldin bo'lishi kerakligini isbotlaydi. Qadimgi Yevropa gidronimiyasi, ehtimol, miloddan avvalgi 2-ming yillikda Alp tog'larining shimolida to'liq rivojlangan. Ehtimol, u Janubiy Yevropaga miloddan avvalgi 2000 yil atrofida kiritilgan. Qadimgi Yevropa suv havzalari nomlarining yoshi taxminan 2000 dan 2500 yilgacha bo'lishi

LINGUISTICS

mumkin. Ular yaratilgan paytdan beri hech qanday yozma dalillar saqlanib qolmagan. Fazoviy taqsimot nuqtayi nazardan bir qator uzluksizlik markazlarini aniqlash mumkin, ularda nomlarning uzatilishi bir nechta til o'zgarishlari (masalan, Reyn, Moselle viloyati, Boltiqbo'yi davlatlari) bo'yicha turar-joy uzluksizligi bilan kafolatlangan. Alp tog'larining shimolidagi qadimgi Yevropa daryolari nomlari tilning eng qadimgi tushunarli qatlamini tashkil qiladi. Pireney yarim orolida, janubiy Italiyada, Gretsiyada va Fransiyaning janubida Hind-Yevropagacha bo'lgan qadimgi nomlar qatlamlari mavjud (Egey-Pelasg, Iberian). Qadimgi Yevropa daryo nomlarining aksariyati suv so'zlari deb ataladigan so'zlardan, ya'ni (oqayotgan) suv belgilaridan kelib chiqishi mumkin. Eng keng tarqalgan shakllanish namunasi derivatsiyadir. Quyidagilar kesim yasalishi sifatida birlashtiriladi: ma'no anglatuvchi ildiz+hosila qo'shimchasi+fleksion qo'shimcha, masalan: Ala-nt-ia (Elz) yoki qiyosiy: Ila+r + A (Aller, Iller); Al + s + ina (Else) va hokazo [5].

1-jadval. Qadimgi Yevropa suv so'zlari (H.Krahe bo'yicha alifbo tartibida)

| Suv nomlarining Qadimgi Yevropacha ildizi | Ma'nosi | O'zbek tilidagi tarjimasi | Misollar |
|---|---|--|---------------------------|
| adu-/adro- | Wasserlauf | Suv oqimi | Attel, Edel, Oder |
| am- | Flussbett, Graben | Daryo o'zani, chuqurlik | Ohm, Ammer, Ems |
| ap- | Wasser, Fluss | Suv, daryo | Appelbach, Aisne, Efze |
| av- | Quelle, Flusslauf | Buloq, daryo oqimi | Ave, Auma |
| drouos | Flusslauf | Daryo oqimi | Drau, Drohm |
| el-, ol- | fließen, strömen | Oqmoq, tommoq | Ilm, Elz, Aller, Alster |
| mor- | Stehendes Wasser, Meer, Sumpf, sumpfiger Wasserlauf | Turib qolgan suv, dengiz, botqoq, botqoqli suv oqimi | Mohra, Mörn |
| ned-/nod- | Nass, Flut | Nam, toshqin | Neta, Nede |
| neid-/mid- | fließen | oqmoq | Neiße, Nied, Nethe, Nidda |
| pel-/pol- | gießen, fließen | Sug'ormoq, oqmoq | Pola |
| rei-/roi-/ri-/reg- | Fließen, feucht, Wasser | Oqmoq, nam, suv | Regen, Regnitz |
| sal- | Bach, fließendes Wasser, Strömung | Anhor, oqadigan suv, oqim | Saale, Salm, Selz |
| ser-/sor- | fließen, strömen | Oqmoq, tommoq | Saar, Sarthe, Serre |
| souos- | Feuchtes, Flüssigkeit | Nam, suyuqlik | Save, Seve, Savone |
| ueis-/uis- | fließen, zerfließen | Oqmoq, yoyilmoq | Wiese, Weser, Vezouze |
| uer-/uor- | Wasser, Regen, Fluss | Suv, yomg'ir, daryo | Würm, Varenne |

Suv so'zlaridan tashqari suvning (ayniqsa, rangi) yoki o'zaning xususiyatlariga ko'ra ham ko'plab nomlar mavjud. Quyidagi jadvalda suvning xususiyatiga qarab nomlanishi keltirilgan.

2-jadval. Suvning xususiyatlariga ko'ra nomlar

| Suv nomlarining Qadimgi Yevropacha ildizi | Ma'nosi | O'zbek tilidagi tarjimasi | Misollar |
|---|---------------------------------|---------------------------------------|------------------|
| ag- | treiben, in Bewegung setzen | Haydamoq (suvni), harakatga keltirmoq | Aire, Eger |
| albh- | weiß, hell, klar später "Fluss" | Oq, yorug', tiniq daryo | Elbe, Aube, Albe |
| arg- | klar, glänzend | Tiniq, yaltiroq | Arge, Argen |
| bhel- | glänzend, weiß | Yaltiroq, oq | Balsenz |
| dreu-/dru- | laufen, eilen | Yugurmoq, | Drome, Traun |

LINGUISTICS

| | | | |
|---------------|----------------------------------|----------------------------|-------------------------------|
| | | shoshmoq | |
| eis-/ois-/is- | (sich)heftig, schnell bewegen | Kuchli, tez oquvchi | Isen, Eisbach, Isar, Isere |
| kar- | hart, steinig | Qattiq, toshli | Charente, Cher |
| ner-/nor- | tauchen, Höhle, Grube | Sho'ng'imoq, g'or, o'ra | Nera, Niers |
| oudh- | reich, reichlich | Boy | Auda |
| ter-/tor- | schnell, stark | Tez, kuchli | Taro |

b) keltcha: Morfologik jihatdan kelt daryosi nomlari qadimgi Yevropa nomlari bilan o'xshashliklarga ega (masalan, qo'shimchalar bilan hosil qilish). G'arbiy va Janubiy Germaniya, Fransiya, Shimoliy Italiya, Shveysariya va Britaniya orollarida tarqalishi tufayli ularni asosan kelt deb tasniflash mumkin. Agar german yoki nemis etimologiyasi chiqarib tashlansa va keltga mos keladigan apellyatsiya mavjud bo'lsa, ismi ushbu qatlamga kiritish mumkin. Yo'qolgan materik (masalan, Gall) faqat bo'laklarga bo'linganligi sababli, ko'pincha orol kelt tillarida (masalan, gal, simrik, bretin) ekvivalentlaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

3-jadval. Keng tarqalgan Keltlar daryosi nomlarining kelib chiqish ildizlari

| Ildiz | Ma'nosi | O'zbek tilidagi tarjimasi | Misollar |
|--------------------------|----------------------|---------------------------|-------------------------|
| ambe- | Bach | Anhor | Amper, Emmer |
| an (am) | Sumpf | Botqoq | Ahrbach, Enz |
| briga- | Högel, Höhe | Qoya, balandlik | Brent, Bregenzer Ach |
| glan | Hell, rein, lauter | Yorug', tiniq, baland | Glan, Glane |
| dubro | Wasser | Suv | Tauber |
| cete | Wiese, Weg | O'tloq, yo'l | Kinzig |
| kambo | krumm | Qiyshiq | Kamp, Chamb |
| labaros | rauschend | Shovqinli | Laber, Laaber |
| Trago-Superlativ-(i)sama | Sehr schnell laufend | Juda tez yuguradigan | Traisen, Dreisam |

Ayrim hollarda daryo nomini ma'lum nom qatlamlariga belgilash munozarali bo'lib qolmoqda. Masalan, Reyn (miloddan avvalgi 52 yil atrofida *Rhenum*) kelt daryosi nomlari orasida (Seltcha *renos*, *rian* "dengiz") yoki eski Yevropa nomlari orasida (Hind-Yevropa *reynos*, *-rei*, *-roi*, "oqmoq").

c) germancha: Nemis olimi Bandlning fikriga ko'ra, qadimgi Yevropa so'z yasashi german davrida ham samarali bo'lgan, lekin asta-sekin birikmalarning ko'payishi bilan, ya'ni germancha *ahno* so'zi "Wasser (suv)" bilan almashtirilgan. Qadimgi oliy nemis tili *aha*, germancha *ahno* mintaqaviy ravishda *-ach* (Germaniyaning janubi va janubi-g'arbiy qismida: Brigach, Wutach), *ohe* (Yuqori Pfalzda: Frankenohe, Fichtenohe), *-ig* (Germaniya janubida: Hässig, Rinnig), *-a* yoki *-e* kabi uchraydi (asosan shimoliy va markaziy Germaniyada: Salza va Verra). Ba'zida *aha* ham *Elz* > *Elzaxdagi* kabi yo'qolib ketgan yoki ikkinchi *-bach* nomi sifatida qayta talqin qilingan (*Salz-aha* > *Salzbach*, *Elm-aha* > *Elmbach*).

Aha ismlari butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan. Boshqa nemis tillarida ekvivalentlar mavjud inglizcha *-ey*, shved./ dan. - *a*, norv. - *aa*. Ular uzoq vaqt davomida, ayniqsa, Germaniyaning janubida samarali bo'lib qolishdi. Bundan tashqari, daryo nomlari ham *-apa* bilan qayta shakllangan, shu bilan *-apa* va *-aha* nomlari ularning tarqalishida asosan bir-birini istisno qiladi. Kvalifikatsiyalar, birinchi navbatda, suvning xossalari, suv havzasining tabiiy muhiti, hayvon va o'simlik nomlari va boshqalarni anglatadi. Bundan tashqari *-aha* kattaroq, endi tushunilmaydigan daryo nomlari uchun ikkinchi darajali sifatida paydo bo'lishi mumkin: *Brigana* > *Brigach*. Dominant birikmalardan tashqari, *Ahe*, *Ach*, *Aa Speyer (bach)* (*Spira* noaniq etimologiyasi), *Dyussel (Tussale-shoshqaloq suv)* kabi bir qatlamli german daryo nomlari ham mavjud.

d) slavyancha: Xalqlarning ko'chishi jarayonida slavyan qabilalari VI asrdan boshlab Elba va Saaldan sharqda Bavariyaning shimoli-sharqida, Quyi Avstriyada, Karintiya va Shtiriyada joylashdilar. Shuning uchun bu hududlarda suv nomlarining slavyan qatlamini kiritish kerak. Slavyancha *Rietsce-recka* "Daryocha", shuningdek *Rauda-ruda* "Qizil" kabi oddiy daryo nomlari ham ba'zan uchraydi. Slavyan asoslari va tipik chiqishlari bo'lgan hosilalar ko'proq tarqalgan *-ica* (*Kremnit*: < *Kremen-ica* "Kieselbach",

LINGUISTICS

Löwitz < *Lew-ica* "linker Bax"), *nica* (*Oelsnitz* < *Oles-nica* "Erlenbach", bugungi aholi punktlari nomlari), *Leuschnitz* < *Luznica* "Sumpfbach" -*ovica* (*Teyßwitz* < *Tis-ovica* "Eibenbach") -*ina* (*Kossein* < *Kos-ina* "Amselbach") [6]. Biroq -*itz* qo'shimchasi bilan tugaydigan, slavyan kelib chiqishi bo'lmagan nomlar ham bor, ayniqsa, frantsuz tilida. *Pegnitz* < *Pagniza* Hind-Yevropacha -*bhog* "oqadigan suv", *Rednitz* < *Radantia* Hind-Yevropacha *redh/rodh* "oqmoq, daryo oqimi"; *Wörrnitz* < *Warinza* (9-asr) < *Varnatiya* Hind-Yevropacha, *uer-* "suv, yomg'ir, suyuqlik". -*itz* qo'shimchasi zaiflashgan Hind-Yevropacha -*entia* dan kelib chiqadi.

f) nemischa: Qadimgi davrlarda qo'shma so'zlarning ko'payishi odatiy xususiyat bo'lib, barcha nemis daryolari nomlarining taxminan 65-80 foizida eng keng tarqalgan o'zak so'z -*bach* va -*beke* ustunlik qilgan. Umumiy o'zgartiruvchilar sifat (*Schwarz-bach*), ot (*Eber-bach*) va ravish (*Ober-bach*) bo'ladi. Asosan asoslantirilgan sifatlar sodda so'zlar sifatida qatnashadi: *Glatt* eski yuqori nemis tilida *glat* "porlash", *Krum* eski yuqori nemischa *krump Lude* eski saksoniyada *hlud* "baland, ravshan ovozli", *Lauter* eski yuqori nemischa / eski saksoniyada *hlut(t)ar* "toza, aniq". Ism olingan Daryo nomlari *Rieth* < eski yuqori nemis *hriot* "Ried", *Lache* < eski yuqori nemis *lacha* "ko'lmak", *Sulz* eski yuqori nemis *sulza* "tuz suv", *Spring* eski yuqori nemis, *sprinc* "bahor", *Vande* eski yuqori nemis *Vanda* "aylanma, girdob" kabilarni uchratish mumkin. Ayniqsa, ot so'z birikmalari eng yosh daryo nomi qatlamida ahamiyat kasb etadi. Ular odatda sifat+ildiz so'zdan iborat (*Frank Saale*, *Bensheimer Bax*, *Weißer Main*). *Tiefenbax*, *Shvartsenbax*, *Lautenbax*da unverbatsiya (birgalikda harakat qilish) mavjud bo'lib, ular dativ yoki akkusativda old qo'shimchalardan kelib chiqqan. Hozirgi zamon qo'shimchalari (*Klingen(d)bach*, *das vallende Wasser*>*Fallendwasser*) va genitiv kelishigidagi shaxs ismlari (*Sigemarx Bach* *Simmerbach*) bilan chalkashlik ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari, ko'p bo'g'inli aholi punktlari nomlarining qisqarishi natijasida paydo bo'lgan qavs shakllari (*Sindelbax*<*Sindelfinger Bax*, *Konsbax*<*Konsheymer Bax*) va regressiyalar (*Aid*<*Aidlingen*, *Ette*<*Ettenhausen*, *Ditz*<*Ditzenbach*) ham rol o'ynaydi. Ko'pincha -*bach* ikkinchi darajali eski nomlarga qo'shiladi yoki -*apa* va -*aha* (*Kraich*>*Kraichbach*, *Albaha*>*Aalbach*) kabi asosiy so'zlarni almashtiradi.

4-jadval. Nemis daryolari nomlarining umumiy ildiz so'zlari

| Asosiy so'z | Ma'nosi | O'zbek tilidagi tarjimasi | Misollar |
|---------------------|-------------------------------------|-----------------------------|--------------------|
| -bach/nd. -beke | Kleiner Fluss | Kichik daryo | Gonsbach, Ellerbek |
| -graben | Rinne, Wassergraben | Tarnov, zovur | Landgraben |
| -brunnen/-born | Quelle | Buloq | Mühlbrunnen |
| nd. -flöte, -flüte | Abflussgraben | Oqava tarnov | Grenzflüte |
| -floß | Kleiner Bach, Rinne | Kichik anhor, tarnov | Klingelfloß |
| nd. -föhre, -föhrde | Wasserlauf | Suv oqimi | Kuhföhre |
| obd. -gießen | Tiefer, langsam fließender Flussarm | Chuqur, sekin oquvchi irmoq | Taubergießen |
| -grund | Abgrund, Tal, Schlucht | O'pqon, vodi, dara | Mühlgrund |
| -kanal | Kanal | Kanal | Bechteimer Kanal |
| -klinge | Waldbach | Jilg'a | Kreuzklinge |
| nd. -riede, -riehe | Bach, Graben | Anhor, o'ra | Feldriehe |
| obd. -runz | Graben, Bachbett | O'ra, anhor, chekkasi | Saurunz |
| -wasser/nd. -water | Wasser | Suv | Schwarzwasser |

Eng qadimgi daryo nomlari odatda suv so'ziga asoslangan, suv va daryo tubining xususiyatlariga ishora qiluvchi apellativ (ichki motivatsiya), yosh qatlamda atrof-muhit va inson ta'siriga qarab belgilar ustunlik qiladi (tashqi motivatsiya).

Ichki motivatsiya (asosiy nomlash motivlari):

- Suvning xususiyatlari: rangiga qarab (*Schwarzach*-qora suv, *Rötenbach*-qizil ariq), shovqiniga qarab (*Klingenbach*-sharqiroq anhor), hidi, ta'miga qarab (*Sauerbach*-sho'rsuv), haroratiga qarab (*Kaltbach*-sovuq ko'l), suvning tozaligiga qarab (*Lauter*-tiniq).

LINGUISTICS

- Harakat: tezlik (yovvoyi) yoki sustlik (yengil)
 - Suv ta'minoti (Hungerborn-och, Dürrbach-quruq ariq)
 - Qirg'oqning xususiyatlari (Stein -tosh, Moos -mox, Tiefenbach-chuqur ko'l).
- Tashqi motivatsiya (shuningdek, ikkinchi darajali nomlash motivlari):**
- Daryo oqimining tashqi shakli (Krumbach, Gabelbach)
 - Atrof-muhit: fauna (Biberbach), flora (Eschbach), joy (Talbach-vodiy irmog'i)
 - Nisbiy joylashuvi (Zwerchbach, Querbach, Ostrach-ko'ndalang)
 - Inson foydalanishi (Mühlbach-suv tegirmoni)
 - Egasi yoki foydalanuvchi (Nonnenbach-Nonn arig'i, Geroldbach-Gerold arig'i)
 - Tarixiy faktlar (Zehntgraben, Galgengraben-bebosh dara)
 - Turar joy yoki bino (Dorfbach-qishloq arig'i, Kirchbach-cherkov arig'i).

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, daryo nomlarining nisbiy o'zgarishligi va yuqori doimiylikka qaramay, ularda ma'lum bir o'zgaruvchanlik uchrab turadi. Katta daryolarning nomlari asosan butun mamlakat bo'ylab mashhur. Ular har doim muhim transport va savdo yo'llari bo'lib xizmat qilganligi sababli, bir xil nom ko'pincha ularning butun yo'nalishi bo'ylab tarqaldi. A.Groyle (Albrecht Groyle (1942-yil 13-aprelda Bühl shahrida tug'ilgan) — nemis tilshunosi, onomastika va o'rta asr tadqiqotchisi, Regensburg universitetining nemis tilshunosligi bo'yicha faxriy professori) ning fikricha, suv oqimida turli xil bo'lim nomlari yoki umumiy etimonga tegishli bo'lmagan muqobil nomlar mavjud bo'lsa, ko'p tillilik haqida gap boradi. Faqat daryoning turar-joy hududida yagona tilning tarqalishi va rasmiy qoidalar orqali daryoning butun yo'nalishi uchun bitta nom ustun bo'lishi mumkin, ayniqsa, yozma nutqda, og'zaki aloqada esa bo'lim nomlari mavjud bo'lib qoladi. Hatto bugungi kunda ham umumiy nomning tarqalishi to'liq emas, ayniqsa, kichikroq oqimlarda, shuning uchun ismlarning eski shakllari yoki bo'lim nomlari ko'pincha mavjud bo'lib qoladi, ular yangi nomlar bilan raqobatlashadi.

ADABIYOTLAR:

- 1.R. Fischer. *Die Gewässernamen Brandenburgs. Weimar-1996.*
- 2.A.Greule. *Arbeits- und Darstellungstechniken des deutschen Gewässernamenbuchs. Ziegler-Windberger-Heidenkummer 2011. S.117-126.*
- 3.H.Bichlmeier. *Analyse und Bewertung der sprachwissenschaftlichen Standarts aktueller Forschungen traditioneller Art zur alteuropäischen Hydronymie aus der Perspektive der heutigen Indogermanistik. S.397-437.*
- 4.H.Bichlmeier. *Einige grundsätzliche Überlegungen zum Verhältnis von Indogermanistik und voreinzelsprachlicher resp. alteuropäischer Namenkunde. In: NI 65/96, S.173-178.*
- 5.H.Krahe. *Unsere ältesten Flussnamen. Wiesbaden.S.39-97.*
- 6.A.Greule. *Etymologische Studien zu geographischen Namen in Europa. Regensburg. 2007. S.33.*
7. H.Krahe. *Unsere ältesten Flussnamen. Wiesbaden.S.18.*
8. Bozorova P. III. "Сув" сўзи билан боғлиқ фразеологик бирликларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги таҳлили //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 1. – С. 277-282.
9. Bozorova P. III. Сув билан боғлиқ жой номларининг лисоний қатламлари таҳлили //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – T. 1. – №. 3. – С. 112-118.
10. Bozorova R. S. Interpretation of poetonims in the novel by Johann Wolfgang Goethe "The sufferings of young Werther" //scientific bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 12. – С. 182-185.
11. Bozorova R. Гидропонимларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги фразеологик бирликларда акс этиши //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – т. 26. – №. 26.
12. Abdikarimovich B. O. The views of Jalaliddin Rumi //Middle European Scientific Bulletin. 2021. – T. 12. – С. 319-322.
13. Babayev O. The first encounter between jaloliddin rumi and shams tabrizi //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 27. – №. 27.
14. Sharopovna B. R. Nomlarni tadqiq qilishda turli yondashuvlar //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 30. – С. 337-339.
15. Hayotova D. Tushuncha va so'z munosabati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 29. – №. 29.

LINGUISTICS

16. Zoyirovna H. D. *Studies on the Concept of "Motherland" ("Heimat") in Cognitive Linguistics* // *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-158.

17. Nazarova, N. (2022). *Лексико-семантические особенности антропонимов*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 25(25). *извлечено от* https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8279

18. Nazarova, N. (2022). *Лингвистическое исследование антропонимов в лексической системе*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 13(13). *извлечено от* https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6674

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



Google
scholar



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
<https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/>
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.04.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"Sadridin Salim Buxoriy" LLC
Address: Bukhara,
M.Ikbol street, 11